

MIGRATSIYA VA FUQAROLIKMI RASMIYLASHTIRISH TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
3-bosqich kursanti Narziloyeva Shahlo Nodir qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan hozirgi paytda migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish tizimida axborot texnologiyalarini qo'llanishining zaruriyati, dolzarbligi va migratsiya jarayonlarini avtomatlashtirishda foydalanilayotgan zamonaviy dasturiy ta'minotlar, elektron hukumat va Yagona Interaktiv Davlat Xizmatlari portal (my.gov.uz) imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: migratsiya, fuqarolik, rasmiylashtirish, zamonaviy texnologiyalar, axborotlashtirish, portal imkoniyatlari, zamonaviy dasturiy ta'minotlar.

Abstract: This article mainly discusses the necessity and relevance of using information technologies in the current migration and citizenship registration system, as well as the capabilities of modern software used to automate migration processes, e-government, and the Unified Interactive State Services portal (my.gov.uz).

Keywords: migration, citizenship, registration, modern technologies, informatization, portal capabilities, modern software.

Аннотация: В данной статье рассматриваются необходимость и актуальность использования информационных технологий в современной системе регистрации мигрантов и гражданства, а также возможности современного программного обеспечения, используемого для автоматизации миграционных процессов, электронного правительства и портала Единых интерактивных государственных услуг (my.gov.uz).

Ключевые слова: миграция, гражданство, регистрация, современные технологии, информатизация, возможности портала, современное программное обеспечение.

Hozirgi globallashuv sharoitida migratsiya jarayonlari ko'lami va murakkabligi tobora ortib bormoqda. Aholining mehnat, ta'lim, turizm va majburiy ko'chish bilan bog'liq harakatlari davlat organlari zimmasiga katta tashkiliy va boshqaruv kabi yukini yuklamoqda. An'anaviy, qo'lda olib boriladigan migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyatidagi ishlar ma'lumotlar hajmining keskin oshishi, xavfsizlik talablarining kuchayishi hamda tezkor qaror qabul qilish zarurati sharoitida yetarli samara bermayapti.

Shu sababli hozirgi kecha-yu kunduzda migratsiya jarayonlarini avtomatlashtirishda zamonaviy dasturiy ta'minotlardan foydalanish dolzarb masalaga

aylandi. Bunday tizimlar migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog‘liq ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va tahlil qilish jarayonlarini optimallashtiradi, shuningdek, ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni, sustkashliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada migratsiya jarayonlarini boshqarishning samaradorligi, shaffofligi va tezkorligi sezilarli darajada oshadi.

Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda hozirda mamlakatimizda hamma sohalar raqamlashtirilmoqda. Jumladan, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasida ham qator elektron baza va tizimlar joriy qilingan bo‘lib, ularni quyida birma-bir tahlil qilamiz.

Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasiga tadbiq etilgan tizimlardan keng ko‘lamda foydalaniladiganlaridan bittasi “E-ma‘muriy ish” tizimi hisoblanadi. Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma‘muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida nizom ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu Nizom qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma‘muriy huquqbuzarliklar yuzasidan ish yuritish va tegishli jazo choralarini qo‘llash vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlari (vakolatli organlar)ning Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida yagona elektron ish yurituv tizimi (“E-ma‘muriy ish” tizimi) orqali huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni elektron shaklda yuritish tartibini belgilaydi. Bu tizim haqida alohida to‘xtaladigan bo‘lsak, **“E-ma‘muriy ish” tizimi** — huquqbuzarlik sodir etilgan holat yuzasidan ma‘muriy ish hujjatlarini elektron tarzda rasmiylashtirish va shakllantirish, vakolatli organga elektron yuborish hamda huquqbuzarlik sodir etgan shaxs (huquqbuzar), jabrlanuvchi, guvoh va xolilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, umumlashtirish, saqlash, tahlil qilish, shuningdek, vakolatli organlar o‘rtasida idoralararo axborot almashishning yagona markazlashtirilgan elektron tizimi hisoblanadi¹.

Undan tashqari yana bir keng ko‘lamda foydalaniladigan tizimlardan biri bu **“E-Fuqaro”** idoralararo ma‘lumotlar bazasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Adliya vazirligi hamda Davlat xavfsizlik xizmati “Pasport-viza” avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasini modernizatsiya qilish orqali uning tarkibida quyidagilarni nazarda tutuvchi “E-Fuqaro” idoralararo ma‘lumotlar bazasini (“E-Fuqaro” IMB) joriy etilishi belgilanib, unda:

- fuqarolik masalalari bo‘yicha arizalarni qabul qilish va ularni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq tartib-taomillar avtomatlashtiriladi;

¹ 08.07.2021 VMQ-431-son Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida

- fuqarolik masalalari bo‘yicha tushgan arizalar idoralararo elektron hamkorlik yo‘li bilan manfaatdor vazirliklar va idoralar o‘rtasida ko‘rib chiqiladi hamda ularga tegishli munosabat bildiriladi;

- fuqarolikka qabul qilish, uni tiklash, undan chiqish va uni yo‘qotish bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish haqidagi arizalari real vaqt rejimida “E-Fuqaro” IMB orqali qabul qilinishi belgilab qoyildi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Soliq qo‘mitasi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda doimiy ravishda idoralararo elektron hamkorlik vositasi orqali almashinadigan ma’lumotlarni amaldagi qonunchilik hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda yangilab borish, olish va berishda foydalaniladigan axborot tizimlarini “E-Fuqaro” IMB bilan o‘zaro muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish yuklandi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Moliya vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda:

fuqarolik masalalari bo‘yicha arizalarni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan davlat boji to‘lovlari, davlat xizmatlari ko‘rsatilganligi uchun to‘langan davlat bojlari va yig‘imlari “Elektron hukumat”ning yagona billing tizimi orqali amalga oshirilishini ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi “E-Fuqaro” IMB doirasida ishtirok etuvchi vazirliklar va idoralarning asoslangan hisob-kitoblari bo‘yicha mazkur loyihani amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan zarur mablag‘lar ajratilishini ta’minlanadi.²

Ichki ishlar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Soliq qo‘mitasi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining quyidagi takliflari:

- 2026-yil 1-maydan boshlab Departament va uning hududiy boshqarmalariga O‘zbekistonga elektron kirish vizasi asosida kirib kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning elektron vizalarining amal qilish muddatini bir marotaba 30 kungacha uzaytirish huquqini berish;

- chet el fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan tasdiqnomani rasmiylashtirish vakolatini Departament va uning hududiy boshqarmalariga ham berish;

² 16.09.2020 VMQ-557-son O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalarini ko‘rib chiqishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

- hududiy ichki ishlar organlari rahbarlariga chet el fuqarolari ta'lim olayotgan muassasalar yoki mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarda viza muddatini uzaytirish, turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag'lari hisobidan shartnoma asosida migratsiya bo'linmasiga shahodatlangan qo'shimcha shtat birliklarini kiritish huquqini berish;

- 2026-yil 1-sentabrdan boshlab talabalar yotoqxonasiga joylashish bo'yicha shartnoma tuzish bilan bir vaqtda talabalarni turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olishning kompozit tartibini joriy etish;

- 2026-yil 1-fevraldan boshlab jismoniy shaxslarga identifikatsiyalovchi ID kartalar birinchi marotaba rasmiylashtirilganda uning chipiga kiritiladigan elektron raqamli imzo sertifikatini bepul berish hamda fuqaroni "Elektron hukumat" tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash yagona axborot tizimida avtomatik tarzda bepul ro'yxatdan o'tkazish, ma'qullandi.

Ichki ishlar vazirligi 2026-yil 1-avgustga qadar sun'iy intellekt texnologiyalari asosida:

migratsiya va personallashtirish sohasiga oid elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish, onlayn huquqiy maslahat berish, yuklamasi kam bo'lgan migratsiya bo'linmalari haqida ma'lumot olish imkonini beruvchi "Pasport-viza" avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasining "Passport-visa" mobil ilovasini ishlab chiqilishi belgilandi.

Bunda mazkur mobil ilova orqali ko'rsatilishi ko'zda tutilgan migratsiya va personallashtirish sohasiga oid elektron davlat xizmatlari dastlab Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida yo'lga qo'yilishi;

- chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekistonda bo'lish qoidalariga rioya etilishini "Xavfsiz shahar" tizimi orqali aniqlash va monitoring qilish imkoniyatini yaratilishi;

migratsiya va personallashtirish sohasida boshqa shaxsning roziligi talab etiladigan davlat xizmatlarini ko'rsatishda ularning shaxsini "Pasport-viza" avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasining "Face-ID" moduli orqali masofadan turib aniqlash va roziligini olish imkonini beruvchi "E-Rozilik" platformasini ishga tushirilishi belgilandi.³

Chet davlatga chiqish uchun kerak bo'ladigan xorijga chiqish pasportini rasmiylashtirish ham hozirgi vaqtda bir qancha tegishli dastur va tizimlar bilan integratsiyalashgan holda "**Xorijga chiqish pasporti**" tizimida rasmiylashtirilmoqda. Bu tizim O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda

³ 19.01.2026. PQ-14-son Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasidagi faoliyatini raqamlashtirish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida

“Pasport-viza”, “ADIS” hamda “ASIL” avtomatlashtirilgan tizimlarining “Xorijga chiqish pasporti” tizimi bilan integratsiya qilishni ta’minlangan. “Xorijga chiqish pasporti” tizimi Migratsiya va personallashtirish markazi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatining 2019-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish avtomatlashtirilgan tizimini (“Xorijga chiqish pasporti” tizimi) joriy etish hamda O‘zbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilish to‘g‘risidagi taklifi asosida yaratilgan⁴

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) — bu butunjahon internet tarmog‘ida rasmiy internet portal bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va biznes uchun elektron davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini taqdim etadi. Portal davlat idoralari bilan o‘zaro hamkorlikni soddalashtirish va keng ko‘lamli davlat xizmatlariga yagona raqamli interfeys orqali tez va qulay kirishni ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan (my3.gov.uz).

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali taqdim etiladigan xizmatlardan foydalanish uchun foydalanuvchilar (jismoniy va yuridik shaxslar) Yagona identifikatsiya tizimida ro‘yxatdan o‘tishlari lozim. Buni quyidagi havola orqali amalga oshirish mumkin:

Yagona interaktiv (OneID) davlat xizmatlari portalining tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2013-yil 1-iyul kuni internet tarmog‘ida my.gov.uz veb-manzilida YIDXP 1-talqini test rejimida ishga tushdi.

YIDXP O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 14-fevraldagi PF-1920-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Obod turmush yili” Davlat dasturiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrda 378-son qaroriga asosan yaratilgan.

YIDXP 1-talqida kundalik turmushga taalluqli soha va yo‘nalishlarni o‘z ichiga oluvchi 40 ga yaqin interaktiv xizmatlar taqdim etildi.

YIDXP faoliyatining birinchi yilida (2014 yil) katta hajmda ishlar amalga oshirildi. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati idoralari, jumladan, tuman va shahar hokimliklaridan iborat 500 dan ortiq tashkilot portal tizimiga integratsiya qilindi.

Bu davr mobaynida 200 ga yaqin elektron davlat xizmati ishga tushirildi, bu esa o‘z navbatida fuqarolar va tashkilotlar uchun elektron davlat xizmatlaridan kengroq foydalanish imkoniyatini yaratdi.

⁴ 26.12.2018. PQ-4079-son O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish tizimini yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

2017-yil 18-iyul sanasida YIDXPning yangi 2-talqini my2.gov.uz ([Wayback Machine](#) saytida 2018-06-20 sanasida [arxivlangan](#)) veb-manzilida ishga tushdi hamda bugungi kunga qadar faol foydalanib kelinmoqda. YIDXP 2-talqini jismoniy va yuridik shaxslarning ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilingan hamda Portalga kirish foydalanuvchilar yagona identifikatsiyasi qilish tizimi ([OneID](#)) orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, YIDXP 2-talqinida fuqarolar (jismoniy shaxslar) va tadbirkorlar (yuridik shaxslar) shaxsiy kabinetlari ajratilgan va shu bilan birga elektron davlat xizmatlari uchun onlayn to'lov imkoniyati yaratildi.

Yagona portalning 2-talqinida portal foydalanuvchilari hisoblangan ish haqi va pensiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni onlayn tarzda olishlari, to'lanmagan soliqlar, kommunal xizmatlar, ijro hujjatlari va yo'l harakatiga oid jarimalarini tekshirishlari mumkin.

2020 yil iyulida, Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi bilan hamkorlikda "O'zbekistonning qishloq hududlarida davlat xizmatlarini taqdim etishni takomillashtirish va boshqaruv darajasini oshirish" loyihasi doirasida yangi mexanizmlar [joriy etildi](#).

Bu yangiliklar qishloq joylarida yashayotgan aholi uchun davlat xizmatlarini yana-da sifatli va oson olish imkoniyatini yaratdi.

2023-yil 24-oktabr kuni ICT Summit 2023 tadbirlari doirasida YIDXP ning yangi 3-talqini my3.gov.uz veb-manzilida taqdim etildi. YIDXP 3-talqini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilgan dizaynga ega bo'lib, MyID yuzni tanish orqali identifikatsiyadan o'tish, "Muxlisa" ovozi yordamchisi, elektron xizmatlarni baholash kabi imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy tarstibga solinishi quyidagicha:

O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni 28-moddasiga muvofiq elektron davlat xizmatlari ariza beruvchilarga davlat organlarining rasmiy veb-saytlari orqali hamda davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishning yagona nuqtasi bo'lgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-sonli qarori bilan tasdiqlangan YIDXP to'g'risidagi nizomga asosan YIDXP axborot, uslubiy, texnik kuzatuv va ma'murchiligi "Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator UZINFOCOM" MChj tomonidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi 409-sonli qaroriga asosan elektron hukumat infratuzilmasini yanada rivojlantirishni ta'minlash, shu jumladan YIDXP, davlat xizmatlari va boshqa elektron hukumat axborot tizimlari xizmatlarini ko'rsatganlik uchun to'langan davlat

boji va yigʻimlar miqdorini hisobga olishning yagona billing tizimini rivojlantirish “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasining funksiyalaridan biri sifatida belgilangan.⁵

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, mazkur maqolada migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish tizimida axborot texnologiyalarining amaliy qoʻllanilishi batafsil tahlil qilindi. Xususan, migratsiya jarayonlarini avtomatlashtirishda qoʻllanilayotgan zamonaviy dasturiy vositalar va ularning funksional imkoniyatlari koʻrib chiqildi. Avtomatlashtirish jarayonlari orqali inson omilini kamaytirish, hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonini tezlashtirish va xatoliklar ehtimolini kamaytirish mumkinligi asoslab berildi.

Shuningdek, interaktiv davlat xizmatlari portali orqali koʻrsatilayotgan xizmatlar samaradorligi tahlil qilindi. Fuqarolar va yuridik shaxslar uchun davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyati yaratilgani, vaqt va ortiqcha byurokratik jarayonlar qisqartirilgani muhim ijobiy natija sifatida baholandi. Bu tizimlar orqali xizmatlarning tezkorligi, qulayligi va ochiqligi taʼminlanayotgani alohida qayd etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 08.07.2021 VMQ-431-son Maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar haqida

2. 16.09.2020 VMQ-557-son Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalarini koʻrib chiqishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida

3. 19.01.2026. PQ-14-son Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasidagi faoliyatini raqamlashtirish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish chora-tadbirlari toʻgʻrisida

4. 26.12.2018. PQ-4079-son Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish tizimini yaratish hamda Oʻzbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida

5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/YIDXP>

⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/YIDXP>